



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 17-oktabr, № 220 (8563)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



ULKAN SAYYOHLIK SALOHİYATINING YORQIN E'TIROFI

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 16-oktyabr kuni Butunjahon turizm tashkiloti (YUNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimida qatnashish uchun Samarqandga tashrif buyurdi.



UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasi

25th session of the UNWTO General Assembly
الدورة الخامسة والعشرون للجمعية العامة لمنظمة السياحة العالمية
世界旅游组织全体大会第25届会议

25ème session de l'Assemblée générale de l'OMT
25-я сессия Генеральной ассамблеи ЮНВТО
25ª reunión de la Asamblea General de la OMT

Davlatimiz rahbari dastlab Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi. Mazkur majmua hozirgi kunda yangidan barpo etilyapti. Bu yerdagi qurilish-pardozlash ishlari ko'zdan kechirildi.

Prezident Matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm majmuasi kongress markazida Butunjahon turizm tashkiloti (YUNVTO) bosh kotibi Zurab Pololikashvili qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston turizm salohiyatini oshirish bo'yicha BMTning ixtisoslashtirilgan instituti bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Turizm tarmog'ini isloh qilishda O'zbekistonning strategik hamkoriga aylangan YUNVTO bilan birgalikda misli ko'rilmagan yuksak darajaga erishilgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

"Ipak yo'lida turizm" brendini keng yoyish, jumladan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizga turizm yo'nalishlarini ommalashtirish,

malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish borasidagi qo'shma sa'y-harakatlar yuqori baholandi.

Mamlakatimizda YUNVTO Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi o'tkazilishi, uning doirasida Samarqand shahrida Xalqaro turizm akademiyasi va "Ipak yo'li" tematik ofisining ochilishi hamkorlikning muhim amaliy natijalari bo'ldi.

YUNVTO bosh kotibi O'zbekiston Prezidentiga turizm sohasining joriy yilgi bosh xalqaro tadbiri yuksak saviyada tayyorlanishi va tashkil etilishiga ko'rsatilgan ko'mak uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Bosh assambleya doirasida turizm sohasidagi yetakchi kompaniyalar, oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar ishtirokida investitsiya va ta'lim forumlari ham bo'lib o'tadi. Ular yakunida mazkur yo'nalishlar bo'yicha qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish yuzasidan aniq shartnoma va bitimlar imzolaniishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASI 25-SESSIASIDAGI NUTQI

Hurmatli Bosh kotib janoblari! Hurmatli delegatsiya rahbarlari! Xonimlar va janoblar! Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi 25-sessiyasining ochilish marosimida barchangizni samimiy qutlashdan baxtiyorman.

Tashkilotimizning yubiley yig'ilishi Buyuk Ipak yo'lining durdonasi, Yangi O'zbekistonning yirik sayyohlik maskani bo'lgan ushbu qadimiy shaharda o'tkazilayotgani chuqur ramziy ma'noga ega.

Jahon sivilizatsiyalari chorrahasida joylashgan bu betakror shahar asrlar mobaynida Sharq va G'arbi o'zaro bog'laydigan, savdo, ilm-fan va madaniyatning chinakam markazi bo'lib kelgan. Mashhur Rimga tengdosh bo'lgan ushbu boqiy zamin ulkan saltanatlar poytaxti, ulug' alloma va mutafakkirlar, aziz avliyo zotlar kamol topgan yurt sifatida bizga hamisha g'urur bag'ishlaydi.

"Yer yuzining sayqali" deya

shuhrat qozongan, Sharqning ikki buyuk Uyg'onish davri rivojiga ulkan hissa qo'shgan Samarqand bugungi kunda jahonning zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Nufuzli xalqaro tadbirimizning aynan bu azim shaharda tashkil etilayotgani ham fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Xush kelibsiz ko'hna va hamisha navqiron Samarqandga, aziz mehmonlar! Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Ma'lumki, turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlari insonlarning dunyo bo'ylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Butunjahon turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra, koronavirus pandemiyasidan avval jahon yalpi mahsulotining taxminan 10 foizi, eksportining esa 7 foizi sayyohlik sektoriga to'g'ri kelgan.

Afsuski, pandemiya ushbu tarmoqqa

jiddiy zarba berdi. Natijada turizm eksporti daromadlari sezilarli darajada qisqardi, millionlab ish o'rinlari yo'qotildi.

Butunjahon turizm tashkiloti va sizlar vakillari bo'lgan davlatlar hukumatlari tomonidan olib borilgan tizimli ishlar natijasida bugungi kunda global turizm qayta oyoqqa turmoqda. Barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlari va yaqin hamkorligi tufayli ushbu tarmoq yangi muammo va tahdidlar qarshisida o'zining moslashuvchan va barqarorligini namoyish etmoqda.

O'tgan yili dunyo miqyosida salkam bir milliard turist xorijga sayohat qildi. Bu pandemiyaga qadar bo'lgan ko'rsatkichning salkam 70 foizini tashkil etdi. Joriy yilda ushbu raqam yanada o'sishi kutilmoqda.

Ko'plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o'z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Global raqobat muhiti kuchaymoqda. Bu albatta bejiz emas: sohaga kiritilayotgan

har bir dollar kelgusida 3-4 barobar daromad keltirishini barchangiz yaxshi bilasiz. Yaratilayotgan har bir yangi ish o'ri esa boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi.

Shu ma'noda, turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omilidir, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda u jahon xalqlari o'rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vositadir.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Biz Tashkilotimizning turizmni dunyoning barcha mintaqalarida jadal rivojlantirish va uni jahon iqtisodiyoti drayverlaridan biriga aylantirish yo'lidagi faol sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Uning sohadagi yangicha yondashuvlari, xizmatlar sifatini keskin oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlari hamda infratuzilma loyihalariga katta urg'u berayotgani tahsinga sazovordir.

Ayniqsa, Tashkilotning global kun tartibida turizmning asosiy o'rin egallashi, ta'lim salohiyatini yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirishda sayyohlik sohasi ulushini oshirish, ko'p tomonlama sheriklik aloqalarini kuchaytirishga qaratilgan intilishlari barchamizning mushtarak maqsadlarimiz bilan uyg'undur.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Butunjahon turizm tashkiloti Yangi O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda ishonchli va uzoq muddatli strategik hamkoriga aylandi.

O'tgan davrda mamlakatimiz uchun xavfsiz turizm bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar ishlab chiqildi, startap loyihalari amalga oshirilmog'da. Shaharlarimizda Tashkilotning mintaqaviy anjumanlari o'tkazib kelinmog'da.

Yaxshi xabardorsizlar, biz so'nggi yillarda O'zbekistonda keng ko'lami, ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshiryapmiz.

Unda asosiy e'tiborni demokratik jamiyat institutlarini mustahkamlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirishga qaratmoqdamiz.

Olib borayotgan "ochiq eshiklar" siyosatimizda turizm tarmog'iga ustuvor ahamiyat beryapmiz.

Salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimini qo'llayapmiz. Yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Biz sayyohlik biznesining barcha turlarini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratdik. Soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etdik, kredit va moliyaviy yordamni kuchaytirdik. Yangi mehmonxonalar qurish va xalqaro brendlarni jalb etish, sayyohlar oqimini ko'paytirish uchun subsidiyalarni ajratilmog'da. Shu tufayli pandemiya cheklolariga qaramasdan, biz ikki yil davomida 800 ta infratuzilma loyihasi amalga oshirdik.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI PEKINGA KELDI

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga amaliy tashrif bilan Pekin shahriga keldi.

"Shoudu" xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini XXR favqulodda vaziyatlar vaziri Van Syansi va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Oliy martabali mehmonlar sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari

ko'tarildi, faxriy qorovul saf tortdi.

Tashrif doirasida 17-18-oktyabr kunlari davlatimiz rahbari XXR Raisi Si Szinpin va Xitoy Xalq siyosiy maslahat kengashi raisi Van Xunin bilan muzokaralar, boshqa ikki tomonlama

uchrashuvlar o'tkazishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston yetakchisi "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumining ochilishida ishtirok etadi va yalpi sessiyasida nutq so'zlaydi.

O'zA.

YANGI O'ZBEKISTON — YASHIL MAKONDA BIRGA YASHAYLIK!

O'zbekiston mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, xotin-qizlar va yoshlar vakillarining xalqimizga MUROJAATI

Aziz vatandoshlar! Ma'lumki, Yer sayyorasi — bashariyatning yagona Vatani. Yer — hayot manbai. Inson hayoti uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasini bizga mana shu saxovatli zamin in'om etadi. Afsuski, bugun suvdan, tuproqdan noto'g'ri foydalanish, ekologik jihatdan zararli texnologiyalarni qo'llash oqibatida sayyoramizda iqlim o'zgarib, bioxilmaxillik yo'qolib bormog'da. Yer yuzidagi 8 milliarddan ortiq insoniyatning hayoti xavf ostida qolmog'da.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqinda BMT minbaridan insoniyat hayotiga tahdid solayotgan uchta inqiroz — iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik



yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishini bartaraf etishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

UMUMIY RIVOJLANISH VA FAROVONLIKKA ERISHISH YO'LIDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-18-oktyabr kunlari Pekinda bo'lib o'tadigan "Bir makon, bir yo'l" III xalqaro forumi tadbirlarida ishtirok etadi.

Biz va jahon

Nufuzli anjuman "Umumiy rivojlanish va farovonlikka erishish uchun "Bir makon, bir yo'l" doirasida yuqori sifatli hamkorlik" mavzuiga bag'ishlangan. Unda ochiq jahon iqtisodiyotini rivojlantirish uchun

o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirish, "yashil" Ipak yo'lini birgalikda qurish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari, to'siqsiz savdo, xalqlar o'rtasidagi aloqalar, tahlil

markazlari, mintaqaviy va dengiz sohasidagi o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilinadi. "Ipak yo'li iqtisodiy kamari" (IYIK) va "XXI asr — Dengiz ipak yo'li"ni (DIY) yaratish tashabbusi Xitoy Raisi Si Szinpin tomonidan 2013-yili dengiz va qit'a mamlakatlari bilan integratsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida ilgari surilgan.

Ko'proq ishtirokchilarni jalb qilgan holda yangi mexanizmlarni

amalga oshirishga o'tishni tezlashtirish istagi Pekinning ikkala tashabbusi bitta — "Bir makon, bir yo'l" (BMBY) loyihasiiga birlashtirishga undadi. 2014-yilda BMBY Xitoy rahbariyatining tashqi siyosat kursining asosiy tarkibiy qismi, deb e'lon qilindi va 2017-yil 24-oktyabrda bo'lib o'tgan XIX qurultoyda Xitoy Kommunistik partiyasi nizomiga kiritildi.

3

4

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASI 25-SESSIASIDAGI NUTQI

Birgina Samarqand shahrining o'zida turistik infratuzilmani yaxshilash uchun 1 milliard dollardan ortiq mablag' investitsiya sifatida kiritildi. Bugungi anjumanimiz o'tkazilayotgan "Ipak yo'li" sayyohlik markazi ana shunday yirik loyihalardan biridir.

Bundan tashqari, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi.

"Amirsoy" qishki kurorti, "Afsonalar vodiysi", "Zomin" va "Chorvoq" dam olish zonalarini ko'plab xorijiy sayyohlar e'tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi.

An'anaviy turmush tarzi va noyob hunarmandchilikka ega bo'lgan turizm qishloqlari tashkil etilmog'da.

Sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida mehmonxonalar o'rinlari soni 140 mingtaga yetkazildi, 70 ta yangi sayyohlik marshrut o'chirdi, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi.

Sayyohlik sohasida professional kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilyapmiz. O'zbekistondagi 35 ta oliy ta'lim muassasasida xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Samarqandda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida 19 ta mamlakatdan kelgan talabalar tahsil olmoqda.

O'zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko'paydi. Turizm eksportidan tushayotgan daromad 4 barobar o'sdi. Misol uchun, sayyohlar soni bu yil Yaponiyadan — 5 barobar, Hindiston va Italiyadan — 3,5 barobar, AQSHdan — 2 barobarga ortdi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yilda mamlakatimizga jami 7 million sayyoh tashrif buyuradi. Ushbu ko'rsatkichni 2030-yilga borib 15 millionga, ichki turizm oqimini esa 25 millionga yetkazishni reja qilaymiz.

Hurmatli xonimlar va janoblari!

Keng ko'lami ishlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan alohida e'tirofqa sazovor bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Butunjahon turizm tashkilotining "eng tez rivojlanayotgan turizm maskanlari" ro'yxatida, shuningdek, mashhur "Gellap" ijtimoiy ta'dqiqot markazining "Sayyohlik uchun eng xavfsiz davlat" reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz AQSHning "National Geographic Traveler Awards" ro'yxatida "Yil yangiligi" hamda "Gastronomik turizm" nominatsiyalari g'olibi bo'ldi.

O'zbekiston o'tgan yili "Jahon musulmon sayyohlari indeksi"da "eng kuchli sayohat yo'nalishi" sifatida tan olindi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz o'z oldimizga juda katta maqsad va rejalarni qo'yganimiz va bu borada sizlar bilan yaqindan hamkorlik qilishga tayyormiz. Jumladan, Turizmni kompleks rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan strategiyani ishlab chiqmog'damiz.

Bu boradagi asosiy yo'nalish sifatida zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Toshkent — Samarqand va Navoiy — Buxoro yo'nalishlari uchun yana 6 ta tezyuror poyezd olib kelinadi, yurtimizda 600 kilometr qo'shimcha temir yo'llar quriladi.

2025-yildan boshlab "Toshkent — Xiva" tezyuror poyezdi qatnovi yo'lga qo'yiladi, 2026-yildan esa ushbu yo'nalish Nukus shahrigacha uzaytiriladi.

Shuningdek, Toshkent — Samarqand va Toshkent — Andijon yo'nalishlarida xususiy sheriklik asosida pullik avtomagistrallar quriladi. Natijada ushbu yo'nalishlarda manzilga yetib borish vaqti 2 barobar qisqaradi.

2030-yilga qadar yana 56 ta zamonaviy avialayner olib kelamiz va aviaparkimizdagi samolyotlar sonini 100 taga yetkazamiz.

Bundan tashqari, aviaqatnovlar soni 4 barobar oshiriladi. Barcha aeroportlarda "ochiq osmon" rejimi joriy qilinadi, hududlardagi 6 ta yirik aeroport xususiy sheriklik asosida yangilanadi.

Shuningdek, katta shahar va sayyohlar ko'p boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasterlari tashkil etiladi.

Biz yurtimizning madaniy turizm salohiyatini oshirishga ham katta e'tibor qaratamiz.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud. YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga 200 dan ziyod moddiy va 6 ta nomoddiy obyektlarimiz kiritilgan.

"Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturi doirasida turistlarni o'ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5

mingtaga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinadi, 20 ta me'moriy yodgorlikda "ochiq osmon ostidagi muzey"lar tashkil etiladi.

Ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshiramiz. Ana shu ezuq maqsadida tabarruk ziyorat maskanlarining geografiyasi kengaytirilib, ularning yagona xaritasi yaratilmoqda.

Samarqandda ulug' mutafakkir bobomiz Imom Buxoriy hazratlari xotirasiga bag'ishlab bunyod etilayotgan muhtasham me'moriy majmua bu boradagi ulkan loyihalarimizdan biri bo'lishiga ishonaman.

Mintaqamiz davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish, Markaziy Osiyoda transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, "Bir tur — butun mintaqa" dasturini amalga oshirish diqqatimiz markazida bo'lmoqda.

Muxtasar aytganda, tibbiy, ekologik, gastronomik, etno, ekstremal va boshqa turizm yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz hisobidan kelgusida kamida 1 millionta yangi ish joylari yaratishni maqsad qilganmiz.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Dunyo turizm industriyasining e'tiborga molik yirik tadbiri — Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi sessiyasining Samarqandda o'tkazilishi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun katta tarixiy voqeadir.

Ishonchim komilki, ushbu anjuman Tashkilotimizga a'zo mamlakatlarda o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va unga yangi shiddat bag'ishlashga xizmat qiladi.

Aloqalarimizni har tomonlama chuqurlashtirish uchun quyidagi takliflarni bildirmoqchiman.

Birinchidan, global turizmning eng dolzarb muammosi — bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlashdir.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan nizo va beqaror vaziyatlar soha rivojiga pandemiyaning ham ko'ra ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ming afsuski, bu jarayonlar oqibatida jozibador va an'anaviy yo'nalishlarda turizm salohiyati va sayyohlar soni keskin pasaymoqda, xavfsiz turizm uchun doimiy

tusga ega bo'lgan xatar va tahdidlar ortmoqda, ularning salbiy ta'siri qo'shni mintaqalarga ham tobora kengroq tarqalmoqda, butunjahon madaniy meros obyektlari va ko'hna arxitektura yodgorliklari vayron qilinmoqda va hatto ayrimlari Yer yuzidan yo'q bo'lib ketmoqda.

Bunday ayanchli holatlarning oldini olish uchun barchamiz hamkorlik va yakdillik bo'lib, bor kuch va sa'y-harakatlarimizni birlashtirishimiz kerak.

Hozirgi murakkab vaziyatni inobatga olgan holda, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etaman.

Ikkinchidan, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbdir.

Shuningdek, Tashkilotimizning "Yashil" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etishni taklif qilamiz.

Tashkilot ko'magida yaqinda ish boshlagan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamkorligida Global "yashil" turizm startaplari laboratoriyasini yaratmoqchimiz.

Biz eng yaxshi innovatsion yechimlarni yaratish maqsadida grant mablag'larini ajratishga tayyormiz. Barcha a'zo davlatlar va xalqaro tashkilotlarni ushbu loyihaga qo'shilishga taklif etamiz.

Uchinchidan, imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish va inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida biz Tashkilotimiz doirasida 2025-yilni "Butun jahon inklyuziv turizm yili" deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz.

To'rtinchidan, Butunjahon turizm tashkiloti huzurida Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu platforma madaniy meros obyektlariga sayyohlar oqimini ko'paytirish, tarixiy yodgorliklarni asrash bo'yicha eng ilg'or tajribalar bilan almashish, tavsiya va

samarali yechimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Kengashning birinchi yig'ilishini qadimiy Buxoro shahrida tashkil etishga tayyormiz.

Beshinchidan, bugun biz Samarqandda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, dunyoda o'xshashi yo'q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasini o'chirdik.

Ishonchim komilki, ushbu Akademiya global ta'lim xabiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shad.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab O'zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi va davlatlaringiz vakillarini bu dasturda faol ishtirok etishga chaqiradi.

Oldinchidan, Tashkilotimiz bilan yaqin hamkorlikda Jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkentda o'tkazish haqidagi tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaysiz, degan umiddaman.

Aminmanki, ushbu forum yoshlarimiz uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g'oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadi.

Yettinchidan, "Ipak yo'li" brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun Tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta'sis etish tashabbusini bildiramiz.

Ushbu rejani amalga oshirishda biz bugun Butunjahon turizm tashkiloti bilan hamkorlikda ochgan "Ipak yo'li" turizm" tematik ofisi faol shug'ullanishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Yana bir masala. E'tiboringizni turizm sohasining faol targ'ibotchilari — jumalistlar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari vakillariga qaratmoqchiman.

Tashkilotimiz qo'shimcha platformalar yaratish orqali bu iqtidorli va jonkuyar ijodkorlarning katta kuch va salohiyatini birlashtirishda faol rol o'ynashi lozim.

Shu munosabat bilan yetakchi ommaviy axborot vositalari, jumalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o'zida birlashtiradigan Global mediakampusni tashkil etish vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

Bunday mediaforumlarni har ikki yilda bir marta Tashkilot Bosh assambleyasining navbatdagi sessiyalari doirasida

o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Birinchi mediakampusni yurtimizda qabul qilishga tayyormiz.

Hurmatli xonimlar va janoblari! Sizlar anjuman davomida Samarqandning qadimiy tarixi, boy madaniyati, uning betakror go'zalligi, xalqimizning urf-odat va an'analari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lasizlar.

Bu azim shahar dunyoning barcha mintaqalaridan tashrif buyuradigan millionlab sayyohlarni o'ziga jalb etayotgan Buyuk Ipak yo'lining chinakam javohiridir.

Siz, azizlar, Samarqandni "Madaniy turizmning xalqaro poytaxti" deb e'lon qilish va tegishli deklaratsiyani qabul qilishga doir tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaysiz, deb ishonaman.

Bu yuksak maqom asrlar bo'yi o'z tarovat va beqiyos merosini bezavol saqlab kelayotgan, bag'rikengli va mehmondostligi bilan butun dunyoda shuhrat qozongan Samarqandning mo'tabar nomiga har tomonlama munosib bo'lar edi.

Hurmatli do'stlar!

Hech shubhasiz, bo'lib o'tayotgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi sessiyasida qabul qilinadigan hujjatlar va kelishuvlar global turizm industriyasining jadal rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Bosh assambleya sessiyasi doirasida o'tkaziladigan investitsiya va ta'lim forumlari jahonning barcha turoperatorlari, oliygohlar va yirik kompaniyalarning o'zaro muloqoti uchun samarali maydon bo'lishiga aminman.

Ushbu forumlarda barcha hududlarimiz o'zlarining boy tarixi va madaniy salohiyatini, sayyohlik imkoniyatlarini to'liq namoyish qiladi hamda istiqbolli investitsiya loyihalarini paketini taqdim etadi.

Bu tadbirlarda sizlarni faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Barchangiz Yangi O'zbekistonda o'zingiz uchun kashf etishingizga, ushbu tashrif qalblaringizda unutilmas taassurotlar qoldirishiga ishonaman.

Siz, aziz do'stlarimiz uchun O'zbekiston eshiklari hamisha ochiq va barchangiz biz uchun doimo qadri mehmoniz.

Bosh assambleya sessiyasining ishiga muvaffaqiyat va omadlar tilayman. E'tiboringiz uchun rahmat.

ULKAN SAYYOHLIK SALOHİYATINING YORQIN E'TIROFI

Uchrashuv yakunida yubiley sessiyaning asosiy yakunlarini amalga oshirish uchun qo'shma "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

Aytish joizki, Butunjahon turizm tashkiloti (YUNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi aynan Samarqand shahrida o'tkazilayotgani bejiz emas, albatta. Zero, ushbu muazzam shahar dunyoning ma'naviyat-ma'rifati markazi sifatida shuhrat qozongan. Bu yerdan yetishib chiqqan olimlar, allomalar Renessans taraqqiyotiga tamal toshini qo'yishgani ham ayni haqiqat. Qolaversa, bu mamlakatimizdagi ochiqlik va erkinlik, ulkan sayyohlik salohiyatining yorqin e'tirofi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur yirik anjumanida dunyoning 140 dan ortiq davlatlaridan vakillar ishtirok etyapti. Ular orasida vazirlar, yirik turistik kompaniyalar rahbarlari, ishbilardon doira vakillari, xalqaro ekspertlar bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi tantanalari ochilish marosimida nutq so'zladi.

Qayd etilganidek, turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri. O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lami va ortga qaytmas islohotlar doirasida turizm tarmog'ini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilayotir. Keyingi yillarda qariyb yuzta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Qolaversa, sayyohlik biznesining barcha turini yuritish uchun qulay muhit yaratildi, soliq hamda bojxona imtiyozlari taqdim etildi, kredit va moliyaviy yordam kuchaytirildi. Mehmonxonalar o'rinlari soni 140 mingtaga yetkazildi, yetmishga yangi sayyohlik marshrut o'chirdi, olitita xususiy aviakompaniya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bunday keng ko'lami ishlar natijasida mamlakatimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko'paydi. Turizm eksportidan tushayotgan daromad to'rt barobar o'sdi. Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda mamlakatimizga jami 7 million sayyoh tashrif buyuradi. Ushbu ko'rsatkichni 2030-yilga borib 15 millionga, ichki turizm oqimini 25 millionga yetkazish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari Turizmni 2030-yilgacha kompleks rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyada zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilishini qayd etdi. Yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan yangi avtomobil hamda temir yo'llar qurilishi, aviatsiya parki ikki barobar kengaytirilishi, aviaqatnovlar soni to'rt barobar oshirilishi, katta shahar va sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan manzillarda o'ttizta yirik turizm klasteri tashkil etilishi ayib o'tildi.

Bu hali hammasi emas. "Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturi doirasida turistlarni o'ziga chalaydigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5 mingtaga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinadi, 20 ta me'moriy yodgorlikda "ochiq osmon ostidagi muzey"lar yo'lga qo'yiladi. Ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshirilishi ayni muddaodir. E'tiborlisi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish masalalarini doimiy diqqat markazida bo'lishi soha taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shuni ham aytish joizki, turizm yo'nalishlarini rivojlantirish hisobidan kelgusida kamida 1 millionta yangi ish joyi yaratish rejalashtirilgan.

An'anaga ko'ra, Prezidentimiz YUNVTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasida sohani rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari global turizmning eng dolzarb muammosi, bu — turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlash ekanini aytib, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etdi. Iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbligi ko'rsatib o'tildi. Bu boradagi amaliy qadamlar sifatida YUNVTO doirasida "Yashil" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etish, shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamkorligida Global "yashil" turizm startaplari laboratoriyasini yaratish g'oyasi o'rtaga tashlandi.

2025-yilni "Butunjahon inklyuziv turizm yili" deb

e'lon qilish hamda maxsus deklaratsiyani imzolash tashabbusi ilgari surilidiki, bu imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish bilan birga, inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, YUNVTO doirasida tarixiy yodgorliklarni asrash bo'yicha eng ilg'or tajribalar bilan almashish uchun platforma — Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. O'zbekiston kengashining birinchi yig'ilishini Buxoro shahrida tashkil qilishga tayyorligi qayd etildi.

Qolaversa, O'zbekiston rahbari yoshlar uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g'oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadigan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdagsini Toshkent shahrida o'tkazishni taklif qildi.

Sessiya davomida yana bir qator hayotiy g'oya — "Ipak yo'li" brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun YUNVTO maxsus xalqaro mukofotini ta'sis etish, Global mediakampusga asos solish va uning forumlarini har ikki yilda bir marta Bosh assambleya sessiyalari doirasida o'tkazish kabi tashabbuslar ham ilgari surildi. O'z navbatida, birinchi mediakampusni O'zbekistonda qabul qilishga tayyorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari delegatlarni Samarqandni "Madaniy turizmning xalqaro poytaxti" deb e'lon qilish va tegishli deklaratsiyani imzolashga doir tashabbusni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

So'zining yakunida O'zbekiston Prezidenti Bosh assambleya sessiyasi muvaffaqiyatli o'tishi va unda yangi natijalarga erishilishini tiladi.

Marosimda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish anjuman qatnashchilariga video murojaat yo'lladi. Forumda so'z olgan Butunjahon turizm tashkiloti (YUNVTO) bosh kotibi Zurab Pololikashvili Bosh assambleyaning 25-yubiley sessiyasi Samarqandda yuksak saviyada tashkil etilganini ta'kidladi va buning uchun O'zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Samarqanddagi "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida uyushtirilgan O'zbekistonning turizm salohiyati ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Aytish joizki, Butunjahon turizm tashkilotining yig'ilishi sohada hali imkoniyatlar ko'pligini ko'rsatish uchun qulay fursatdir. Yaratilgan katta maydon esa ana shu maqsadlarga xizmat qilishi, shubhasiz.

Sara NOSHADI, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari:

— Bugun Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzasini tinglar ekanman, O'zbekistonda turizm sohasi mamlakat iqtisodiyoti, shuningdek, "yashil" iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishning strategik yo'nalishi ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Mamlakatimizda tarixiy merosni va tarixiy obidalarni asrab-avaylash va targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar turizmni rivojlantirishga

bunaq natijasida mamlakat iqtisodiyotiga taraqqiyotga ulkan hissa qo'shayotganini ham alohida ta'kidlamoqchiman. Madaniy va tarixiy merosni muhofaza qilish YUNESKO faoliyatining ajralmas qismidir. Yana bir gap, O'zbekistonning eng muhim boyligi — bu uning mehmondo'st xalqi.

Sofi IBBOTSON, O'zbekiston sayyohlik brendining Buyuk Britaniyadagi elchisi:

— YUNVTO Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi O'zbekiston uchun muhim bo'lishing ikki sababi bor. Bu yerda, birinchi navbatda, butun dunyodan sayyohlik ma'muriyatlar vakillari yig'ilgan. Bu O'zbekistonga nafaqat xalqaro turizm

siyosatiga hissa qo'shish, balki kelgusi ikki yil davomida uni shakllantirish imkoniyatini ham beradi. Ushbu tadbir muhimligining yana bir sababi shundaki, O'zbekiston o'zining mehmondo'stligi va MICE-turizmi yo'nalishini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. MICE — bu biznes uchrashuvlar doirasidagi konferensiyalar va tadbirlar. Biz O'zbekistonda tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish uchun barcha imkoniyat va mutaxassislar borligini ko'rsata olamiz hamda butun dunyo bo'ylab tashkilotchilarni O'zbekistonda rejalashtirilgan tadbirlarni o'tkazishga undaymiz.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi sayyohlariga jozibadorligi shundaki, bu mintaqqa qiziqarli va juda ekzotik yo'nalishlarga ega bo'lish bilan birga, xavfsiz va kirish uchun qulaydir. Ushbu sifatlar muvozanati bu yurti ko'rishni orzu qiladiganlar safini kengaytirmoqda.

Albatta, turistik mahsulotlarning xilmaxilligi ham jozibador. Biz Ipak yo'lidagi diqqatga sazovor joylar, tabiiy manzillar, jamoat joylari haqida bilim va YUNVTO Bosh assambleyasi "Eng yaxshi sayyohlik qishloqlari"ni aniqlayotganidan juda xursandmiz. Bu O'zbekiston uchun xalqaro va mahalliy sayyohlarga qishloq aholisi hamda ularning turmush tarzi bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi ajoyib yangi yo'nalish hisoblanadi.

Xamat Ngai Kumba BAX, Gambiya turizm va madaniyat vaziri: — Bunday keng ko'lami va muhim tadbirda qatnashish imkoniga ega bo'lganimdan juda xursandman. Marokash va Turkiya orqali Gambiyadan O'zbekistonga yetib kelishim uchun 24 soat vaqt ketdi. Shahar aeroportiga birinchi qo'nganimizdanoq Samarqandning

go'zalligi meni hayratda qoldirdi. O'zbekistonning rivojlanish sur'atlari bizni yurtingizdan ko'proq narsalarni olishga undaydi.

YUNVTO Bosh assambleyasi doirasida rejalashtirilgan uchrashuv va muzokaralar chog'ida turizm, sarmoya va ta'lim sohalarda aniq shartnomalar tuzish niyatidamiz. Gambiya fuqarolari O'zbekistonda o'qib, tajriba orttirishini istaymiz. Chunki mamlakatimizning nafaqat ta'lim sohalarda, balki boshqa jabhalarda ham yuksak natijalarga erishgan. Umid qilamanki, kelgusida hamkorligimiz yanada yuqori bosqichga chiqadi.

"Dunyo" AA, Samarqand

Abdulaziz YO'LDOSHEV, Rahim SHERQULOEV ("Xalq so'zi").

So'z — anjuman ishtirokchilariga

Hamkorlik

"HAR BIR BOLA UCHUN TINCHLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASH" REZOLYUTSIYASI QABUL QILINDI

Jeneva shahrida bo'lib o'tgan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 54-sessiyasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) birgalikdagi tashabbusi bilan "Har bir bola uchun tinchlik va bag'rikenglik ruhida siflatli ta'limni ta'minlash" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Hujjat BMTning Inson huquqlari bo'yicha k

UMUMIY RIVOJLANISH VA FAROVONLIKKA ERISHISH YO'LIDA



Bugungi kunda BMBYni izchil targ'ib qilish tashqi siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri va Xitoyning yangi geoiqtisodiy strategiyasining o'zagi hisoblanadi.

Tashabbusning asosiy mohiyati Xitoy ishtirokida mavjud mintaqaviy ikki va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlari hamda tuzilmalarini mustahkamlash orqali xalqaro hamkorlik va rivojlanishning yangi modelini shakllantirish va ilgari surishdan iborat. Asosiy maqsad — Buyuk Ipak yo'li bo'yab Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yevropa davlatlari o'rtasida transport, savdo va energetika yo'lagini qaytadan yaratishdir. Shuningdek, global erkin savdo rejimini qo'llab-quvvatlash, Osiyo, Yevropa va Afrika o'rtasidagi chuqur bozor integratsiyasi, resurslarni samarali taqsimlash, aloqalarni mustahkamlash, muvozanatli va barqaror rivojlanishni ta'minlash kabi vazifalar ham asosiy maqsadlar sirasiga kiradi. Xitoy davlat va xususiy kompaniyalarining Yevrosiyoning ulkan bozorlariga faol kirishi XXR va qo'shma loyihalarda ishtirok etayotgan hamkor mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishdan iborat.

Umuman olganda, Xitoy BMBYni amalga oshirish jarayoniga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Yevropaning 4,4 milliard aholisini (duny aholisining 65 foizi) jalb qilmoqchi. Ushbu davlatlar dunyo yalpi ichki mahsulotining 55 foizini va jahon energetika zaxiralarining 75 foizini tashkil etadi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra butun loyihaning taxminiy qiymati 21 trillion dollarga teng.

O'z tashabbusini amalga oshirish doirasida Pekin hamkor mamlakatlar manfaatlarini hisobga

olishga va ishtirokchi davlatlarning milliy rivojlanish strategiyalari bilan BMBYning yaqin nuqtalarini izlashga, sheriklarga yordam berishga qaratilgan yirik loyihalarni, mamlakatlarning milliy va mintaqalararo transport, energetika va IT infratuzilmasini rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashinuvni rag'batlantirish va yuqori darajaga olib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Bir makon, bir yo'l" loyihasini moliyalashtirish Xitoy tashabbusi bilan yaratilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (OIB) va davlatga tegishli Ipak yo'li jamg'armasi (IYJ) orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, Xitoy taraqqiyot banki (XTB), Yangi taraqqiyot banki (YATB), Xitoy davlat xorijiy valyuta administratsiyasi, Xitoy investitsiya korporatsiyasi va Xitoy Eksport-import banki (Eksimbank) ham moliyalashtirishda ishtirok etadi. XXR suveren jamg'armasi mablag'lari Xitoy investitsiya korporatsiyasi orqali BMBY loyihalariga va Valyuta nazorati davlat boshqarmasi orqali mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari qaytariladi.

O'n yil davomida Xitoy 150 ta davlat va 30 ta xalqaro tashkilot bilan BMBY doirasida 200 dan ortiq hamkorlik shartnomalarini imzoladi, buning natijasida Xitoyning ulki bilan savdo aylanmasi 9,2 trln. dollardan oshdi. BMBY homiyligida Osiyo, Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 3 mingdan ortiq loyihalar amalga oshirildi.

Tashabbusning 10 yil davomidagi jami sarmoyasi 1 trln. dollarga yetdi. BMBY bo'yab joylashgan mamlakatlardagi Xitoy korxonalar 135 dan ortiq savdo-iqtisodiy hamkorlik zonalari yaratdi, qariyb 40 mln. kishi kambag'allikdan chiqarildi va 27 mamlakatda Xitoydagi 11 ta bankning 71 filiali ochildi, ular 2,6 mingta loyihaga kredit berdi.

"Bir makon, bir yo'l"ning birinchi va ikkinchi xalqaro forumlari 2017-yil 14-15-may va 2019-yil 26-27-aprel kunlari Pekin shahrida bo'lib o'tdi. Ular ishida 37 mamlakatdan davlat va hukumat rahbarlari, 150 davlat va 90 xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

birinchi xalqaro forumdagi nutqida mamlakatimiz "Bir makon, bir yo'l" konsepsiyasini aniq dasturlar bilan ta'kidlashdan, jumladan, Markaziy Osiyoda transport, savdo, investitsiya, energetika va yuqori darajadagi texnologiyalarni rivojlantirishdan, transport va logistika yo'nalishlarini ravaq toptirishda keng qamrovli hamkorlik dasturini ishlab chiqishdan, Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy va Rossiya orqali Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozorlari bilan bog'lovchi transport-logistika yo'nalishlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha hamkorlik dasturini ishlab chiqishdan, Pokiston va Eronning Hind okeanidagi portlariga chiqish orqali Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston — Afg'oniston temir yo'lining ushbu tarmog'iga integratsiyasini ta'minlashdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

Shuningdek, O'zbekiston "Ipak yo'li iqtisodiy makoni" orqali integratsiyalashgan sanoat texnoparklari, ilmiy-innovatsion klasterlar va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishdan, BMBY konsepsiyasiga mos keladigan aniq dastur va hamkorlik loyihalarini qabul qilish maqsadida ishblarmon doiralari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatishdan manfaatdor ekanligi bildirildi.

Davlatimiz rahbari "Bir makon, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumida so'zlagan nutqida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasining tranzit salohiyatini yuzaga chiqarish va Xitoy — Markaziy Osiyo — G'arbiy Osiyo iqtisodiy yo'lagini shakllantirish, o'zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishni, "yashil" iqtisodiyot va "aqli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish, Orol dengizi qirishi natijasida vujudga kelgan zararli ekologik oqibatlarni bartaraf etish, inson salohiyatini kuchaytirish uchun mamlakatlarimizning ilmiy va gumanitar salohiyatidan foydalanish, Samarqandda Ipak yo'li xalqaro turizm assotsiatsiyasini tashkil etish kabi hamkorlikning muhim yo'nalishlarini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidentining tashabbuslari ikkinchi forum yakunida qabul qilingan "Bir makon, bir yo'l" doirasidagi hamkorlik: farovon umumiy kelajakni shakllantirish" qo'shma kommyunikesida ham o'z ifodasini topdi. Jumladan, O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy xalqaro avtomobil yo'lga va O'zbekiston — Tojikiston — Xitoy xalqaro avtomobil yo'lga tugallangan yoki amalga oshirilayotgan o'zaro bog'liqlik loyihalari ro'yxatiga kiritildi.

Pekin Markaziy Osiyoda BMBYni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. BMBYning muvaffaqiyatli uddalanishi, mintaqada davlatlari, jumladan, O'zbekiston ham o'zining geografik joylashuvidan to'liq foydalanishi va iqtisodiy gigantlar — Yevropa Ittifoqi hamda

Xitoy o'rtasidagi tranzit arteriyasida iqtisodiy ko'priklarni boshlab berish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari geografik izolatsiyani bartaraf etishdan tashqari, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, yangi iqtisodiy tarmoqlarni yaratish va xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" loyihasini amalga oshirishda, shuningdek, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi va unda faol ishtirok etadi. Toshkent va Samarqanddagi Konfutsiy institutlaridan tashqari, 2019-yil may oyida Toshkentda "Buyuk Ipak yo'li" innovatsion madaniyat markazi ochildi. O'zbekistonning BMBY dasturidagi ishtiroki turizm, sog'liqni saqlash, madaniy-gumanitar almashuv kabi muhim sohalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Xitoylik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan sarmoyaviy loyihalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va texnologik modernizatsiyalashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Xitoy O'zbekistonning savdo hamkorlari orasida birinchi o'rinda turadi. Masalan, o'tgan yil oxirida mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi salkam 9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Joriy yilda bu raqam 10 mlrd. dollardan oshishi kutilmoqda. O'zbekiston Xitoyga o'z tovarlari uchun yirik va istiqbolli bozor hamda salohiyatli sarmoyaviy sherik sifatida qaraydi. Xitoydan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlariga, jumladan, kimyo va neft-gaz sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat va boshqa sohalarga kiritilmoqda. Mamlakatimizda yirik sarmoyaviy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etayotgan Xitoy kompaniyalari soni tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston va Xitoy kompaniyalari ishtirokida ishlab chiqilgan 150 dan ortiq yangi loyihalar amaliyotga tatbiq etish bosqichida. Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi — kambag'allikni qisqartirishdir. Bu yo'nalishda respublika hukumati Xitoy Qishloq xo'jaligi va qishloq ishlari vazirligi bilan o'zaro hamkorlik qilmoqda.

Shubhasiz, forum tarixiy voqeaga aylanadi va ishtirokchi davlatlar uchun iqtisodiy o'sish strategiyalarini amalga oshirish hamda o'zaro muloqotni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Davlatimiz rahbarining mazkur forumdagi ishtiroki ikki va ko'p tomonlama sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, uni mamlakatlar va mintaqalar farovonligi yo'lida yangi amaliy tashabbus va maqsadlar bilan ta'kidlashga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA.



"BIR MAKON, BIR YO'L": FORUM ARAFASIDA

Pekinda "Bir makon, bir yo'l" loyihasi doirasidagi xalqaro hamkorlikka bag'ishlangan uchinchi oliy darajadagi forumga puxta tayyorgarlik ko'riladi.

Xorijdan xabar

Forum tadbirlari Xitoy poytaxtida 17-18-oktyabr kunlari bo'lib o'tadi. Xabar qilinishicha, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqaro forum tadbirlarida ishtirok etish uchun Pekin shahriga tashrif buyuradi. Davlatimiz rahbari forum yalpi majlisida nutq so'zlaydi va bir qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

140 dan ortiq mamlakatlar delegatsiyalari ishtirok etishi kutilayotgan tadbir arafasida butun shahar bo'yab "Bir makon, bir yo'l" loyihasi ramzi tushirilgan plakatlari o'silgan. Forumni keng miqyosda yoritishga ham alohida e'tibor qaratilayotadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, unda qatnashish uchun 4 mingdan ziyod jumalistlar ro'yxatdan o'tgan.

O'tgan jumadan boshlab Pekindagi Olimpiya shaharchasida ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun matbuot markazi o'z faoliyatini boshladi. Bu yerda majlisni jonli efrida kuzatib borish imkonini beruvchi ish zonasi, tele va radiostudiyalar, brifinglar o'tkazish uchun zal va dam olish hududlari mavjud.

Xorijiy jurnalistlarni Xitoy madaniyati va an'analari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ular uchun ko'rgazma pavilyoni ham tashkil etilgan.

Shuningdek, oliy darajadagi forumning rasmiy sayti ham ishga tushirilgan bo'lib, axborot portali tadbir bilan bog'liq yangiliklar xitoy va ingliz tillarida berib borilmoqda.

Ruslan KENJAYEV. Pekin



Oliy Majlis Senatida

YANGI MARKAZ MAHALLIY KENGASHLARGA YAQINDAN KO'MAKLASHADI

Ma'lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda hokimlar va mahalliy Kengashlar vakolatlari taqsimlangan bo'lib, shu asosda mahalliy davlat hokimiyatining yangi modeli joriy etildi. Ayni chog'da mahalliy vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish Senatning mutlaq vakolati sifatida belgilab qo'yilgan.

Mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini oshirishga, norma ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashish, uslubiy qo'llab-quvvatlash, ushbu yo'nalishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida Oliy Majlis Senati Kengashining shu yil 22-sentyabrda qarori bilan parlament yuqori palatasida Mahalliy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi tashkil etildi.

M a z k u r m a r k a z "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ko'zda tutilgan bo'lib, u bir qator vazifalarni bajaradi. Jumladan, uning asosiy yo'nalishlaridan biri — mahalliy Kengashlar faoliyatini zamon talabiga mos olib borishga huquqiy va uslubiy yordam berishdan iboratdir. Bunda mahalliy Kengashlar ishi tahlil qilinadi, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqiladi, Kengashlar reqlamentlari, doimiy komissiyalar nizomlari tayyorlashga ko'maklashiladi, shuningdek, Kengash kotibiyatlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'mak ko'rsatiladi.

O'z navbatida, mazkur yangi tuzilma mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari

Umuman olganda, Senatda Mahalliy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazining tuzilishi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, hududiy vakillik organining oliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorligini izchil yo'lga qo'yish va shu orqali hududdagi tizimli muammolarni hukumat darajasiga olib chiqish va hal etish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, aholining turmush farovonligini yanada oshirishga, qolaversa, xalqning deputatlarga va pirovardida davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

AMALIY TASHABBUSLAR MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISHGA XIZMAT QILADI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 13-oktyabr kuni Bishkek shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtiroki, unda Hamdo'stlik doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha ilgari surgan qator tashabbuslarining ahamiyatiga keng to'xtalib o'tildi va bu bo'yicha fraksiyalar oldida turgan dolzarb vazifalar muhokama qilindi. Shuningdek, Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilgan bir qator qonun loyihalari hamda fraksiyalar faoliyatiga taalluqli boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi.



Iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligi uchun

Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisidagi nutqining mazmun-mohiyati va ahamiyati atroficha muhokama qilindi. Ta'kidlab o'tilganidek, so'nggi yillarda Prezidentimizning konstruktiv tashqi siyosati tufayli nafaqat Markaziy Osiyoda, balki MDH doirasida ham mutlaqo qulay siyosiy muhit va ishonch shakllandi. Muntazam siyosiy aloqalar va o'zaro hamkorlik rishtalari mustahkamlanib, parlament almashinuvlari yo'lga qo'yildi, muloqot va sheriklik uchun turli platformalar ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbari nutqida Hamdo'stlik doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, ta'lim sohasida, sayyohlik almashinuvini rivojlantirish borasida qator tashabbuslar ilgari surildi, ularning barchasi juda muhim va dolzarbdir. — Bishkek shahrida bo'lib o'tgan MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisi Hamdo'stlik mamlakatlari va xalqlarini birlashtiruvchi tashkilot sifatidagi ahamiyatini ko'rsatdi, — dedi "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi o'zasi Jahongir Abdurasulov. — Shu ma'noda, ushbu sammitni mamlakatimiz manfaatli nuqtayi nazaridan samarali va muhim bo'ldi, desak, mulolag' emas.

Yig'ilishda, shuningdek, bir qator deputatlar davlatimiz rahbarining ushbu tarixiy nutqining mazmun-

mohiyati va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Biznes-ombudsman maqomini aniqlashtiriladi

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasida Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonining davlat organi sifatidagi maqomini aniqlashtirish nazarda tutilmoqda.

Muhoakamalardavomida deputatlar keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini qayd etgan holda qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildirdi.

Mazkur qonun loyihasi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va uning devonining huquqiy maqomini qonun darajasida mustahkamlashga hamda uning

davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan partiya pozitsiyasidan kelib chiqqan holda ko'tarilgan savollar, turli takliflar yuzasidan tashabbuskorlardan atroflicha javoblar olinib, qonun loyihasi ma'qullandi.

Qonun loyihasining mazmun-mohiyati hammaga yetkaziladi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilib, birinchi o'qishda qabul qilingan — "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish masalasi ko'rib chiqildi.

Q a y d e t i l g a n i d e k, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazish, saylov organlarining markazlashgan tizimini shakllantirish va maqbullashtirish hamda Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Yig'ilishda Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatini hududlarda bo'ladigan uchrashuvlarda saylovchilarga batafsil yetkazish, bu bo'yicha alohida tadbirlar o'tkazishga kelishib olindi. Shuningdek, qonun loyihasining dolzarbligidan kelib chiqib,

O'zXDPning quyi tuzilmalari, xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlaridan ham fikr va takliflar olish rejalashtirildi.

Byurokratik to'siqlar bartaraf etiladi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama etildi.

— Qonun loyihasi bilan davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish, jumladan, diplom, litsenziya, ruqsatnoma, davlat boji, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar kabi bir qator faktlarni tasdiqlovchi ma'lumotlarni talab etishni bekor qilish nazarda tutilmoqda, — dedi Ekologik partiya fraksiyasi a'zosi Mohira Xo'jayeva. — Shuningdek, loyiha bilan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga advokatlik tuzilmalari hamda bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari, matbuot, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi kooperativlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat bojini BHMning bir baravari miqdorida belgilashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi taklif etilyapti.

Fraksiya a'zolari tomonidan qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada tartibga solish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun undiriladigan to'lov miqdorlarini kamaytirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlarini qisqartirishga xizmat qilishi qayd etildi hamda qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Fraksiyalar yig'ilishlarida kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham atroflicha ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

YANGI O'ZBEKISTON — YASHIL MAKONDA BIRGA YASHAYLIK!

O'zbekiston mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, xotin-qizlar va yoshlar vakillarining xalqimizga MUHOJIRATI

1 Davlatimiz rahbari joriy yil 11-oktabrda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham mazkur masala bo'yicha bir qator muhim takliflar bildirib, ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, 25-oktabrdan 1-dekabrqa qadar yurtimizda "kuzgi daraxt ekish mavsumi" e'lon qilindi.

Doimo ona tabiat bilan uyg'un va hamohang bo'lib, atrof-muhit sofligi va barqarorligini saqlashga intilish keladigan ko'p millatli xalqimiz nomidan biz Prezidentimizning ana shu tashabbuslaridan ruh olib, barchangizni, butun el-yurtimizni "Yangi O'zbekiston — yashil makonda birga yashaylik!" degan oliyjanob g'oyani qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Dono xalqimizda "Yaxshidan bog' qoladi" degan purla'no hikmat bor.

Shunday ekan, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda oilada farzand dunyoga kelganida unga atab ko'chat ekish, hashar yo'li bilan bog'-rog'lar yaratish, imoratlar atrofini ko'kalamzorlashtirish kabi e'zgu an'analimizga hamohang tarzda har bir xonadon tomonidan 20 tup ko'chat ekish va o'stirish tashabbusini ilgari suramiz.

Shuningdek, har bir fuqaroning to'y va boshqa yaxshi kunlarida nihol ekishni an'anaga aylantirsak, nima deysizlar?! Bu g'oyat savobli

tadbir emasmi? Qadrli mahalla faollari, ko'chaboshi va uybo'shilar!

Ayni vaqtda, ayrim mahallalarda, ko'cha va guzarlarda bo'sh turgan, daraxt ekilmagan joylar ham ko'p. Endigi vazifamiz ushbu joylarni bog'-rog'larga aylantirishda mahalla ahlining hamijhatligini kuchaytirish, hudud obodligi va aholi farovonligiga xizmat qiladigan loyihalarni kengaytirishdan iboratdir. Buning uchun har bir mahallada "mahalla bog'lari"ni yaratishimiz, yashil hududlarni ko'paytirishimiz, shaxsiy namuna sifatida dastlab o'z xonadonimiz va ko'chamizni obod qilishimiz, "Yashil makon" umummilliy loyihasiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Ekilgan har bir niholni parvarishlash va saqlashda mahalla faollari, boshqaruvi-servis kompaniyalari jonbozlik ko'rsatishi lozim. Buning uchun "mahalla yetiligi", ko'chaboshi va uybo'shilar hamda xonadon egalari mas'ul sifatida birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Muhtaram nuroniylar! Sizlarning hayotiy tajribangiz, duo va tilaklaringiz xalqimiz uchun hamisha katta tayanch va suyanch bo'lib kelmoqda.

Yurtimizdagi 3 milliondan ortiq nuroniylardan mahallalarda "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda, aholi tomonidan ko'chatlarni

namunali ekishni tashkillashtirishda yanada faollik va tashabbus kutib qolamiz. Sizlarning shaxsiy namunangiz, pandu nasihat, tavsiya va ko'rsatmalariz barchamiz uchun muhim.

Nuroniylarimizning har biri 1 tupdan ko'chat eksi, 3 milliondan ziyod yangi daraxtlar paydo bo'ladi. O'ki har biri o'z yoniga 10 nafar yoshni jalb qilsa, bu raqam 10 barobarga oshadi.

Hurmatli dehqon va fermerlar, tomorqa yer egalari!

Yerga mehr berish, uning har bir qarichidan unumli foydalanish, ko'chat ekib, bog' yaratishda sizlarning ulushingiz katta. Birgina ko'chat yetishtirish bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatimizda bir yarim ming fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tomonidan 81 milliondan ziyod tut, tok, tol, yong'oq va boshqa nihollar parvarishlanmoqda.

Bu savobli ishlarni davom ettirish uchun har bir xonadon egasi o'z tomorqasiga, mahalla guzari va ko'chasiga 10 tupdan ko'chat eksi, yurtimiz bo'yab o'rtacha 55 million daraxt bunyod bo'ladi.

Fermerlarimiz "Bir dala — bir mahsulot" tamoyili asosida o'z hududiga tut, tok, terak va boshqa ko'chatlarni eksi, har bir qarich yerimiz bog'-rog'larga aylantiradi.

Qadrli ziyolilar, fan, adabiyot, san'at

namoyandalari va sportchilar!

Jonajon Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda sizlarning faol ishtirokingiz muhimdir.

Siz kabi el tanigan ijod ahliga, ziyolilar hamda sport yulduzlariga yurtimiz yoshlari o'zgacha havas bilan qaraydi.

Shunday ekan, yurtimizda amalga oshirilayotgan kuzgi daraxt ekish mavsumida sizlardan yangi-yangi tashabbuslar, amaliy harakatlar hamda shaxsiy namuna kutib qolamiz!

Mo'tabar onalar, aziz opa-singillar! Xonadonimiz, mahallamiz fayzu tarovati siz bilan go'zaldir!

Tabiat ham ona kabi muqaddasdir! Ona va tabiat tushunchalari bir-biriga hamohangdir. Onani qanday e'zozlasak, tabiatni ham shunday qadrlashni farzandlarimiz ongu shuuriga chuqur singdiraylik!

Toki, zurriyodlarimiz ota-bobalarimiz singari bog'u bo'stonlar yaratuvchisi, ona tabiat himoyachisi bo'lsin! Shundaygina tabiatni asl holidek saqlab, uni kelajak avlodga bezavol yetkazishga erishamiz.

Ayni vaqtda, "Onalar — yashil makon uchun" g'oyasining an'anaga aylanib borayotgani, mahallalarda "Onalar bog'i" tashkil etilayotgani

quvonarlidir. Bu ishlarda 10 mingga yaqin mahallalardagi "Oqila ayollar" harakatining ham munosib o'rni bor. Galdagi vazifamiz — ushbu xayriy tadbirlarni xalqimiz orasida keng yoyishdan iborat.

Aziz yoshlar! Sizlar Yangi O'zbekistonning bunyodkor kuchisiz! Xalqimiz ko'zlayotgan yuksak marralarga erishishda aql-zakovatingiz, g'ayrat-shijoatingiz, ona Vatanga bo'lgan sadoqatingiz beqiyosdir.

Ona zaminimizga mehr bering! Nurli kelajak uchun bugundan boshlab o'z xonadoningiz, ko'changiz, mahallangizda niholingizni eking, hududda "O'shlar bog'i"ni tashkil etishda tashabbus ko'rsating!

Aslo unutmang, siz O'zbekiston farzandisiz, sizning hissangiz — bu ota-onangiz, mahallangiz va butun xalqimizning farovonligi uchun xizmat qiladi.

Qadrli yurtdoshlar! Daraxt ekish va uni parvarishlashni majburiyat emas, qadriyat sifatida qabul qilaylik!

Har birimiz kelajak avlod oldidagi burchimizni chuqur his qilgan holda "Yashil makon" loyihasini umumxalq milliy harakatiga aylantiraylik!

Toki, bizdan farzandlarimizga obod, yashillikka burkangan go'zal Vatan meros qolsin!

"YASHIL MAKON" — ONA SAYYORAMIZNING HAYOTIY MANBAI

Yaqinda davlatimiz rahbari poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Oqtepa va Bog'zor mahallalariga tashrifi chog'ida jamoatchilik bilan birga ko'chat ekib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi daraxt ekish mavsumini boshlab berdi.

Umummilliy harakat

Bu yo'nalishdagi ishlarga Navoiy viloyatida ham jiddiy e'tibor qaratilyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, navoiyliklar joriy yil bahor mavsumida 8 mln. 924 ming tup daraxt va buta ko'chati ekishgan edi. Mazkur xayriy ishlar kuzgi mavsumda ham davom ettirilib, viloyat bo'yicha 5 mln. 973 ming tup daraxt hamda buta ko'chati ekish rejalashtirilgan.

Ayni paytda avtomobil va temir yo'l yoqalari, klaster hamda fermer xo'jaliklarining ekin yerlari, dala chetlari, o'rmon fondi yerlari, ijtimoiy soha obyektlari, xizmat ko'rsatish tashkilotlari, yirik sanoat korxonalari

hududlarida ekin maydonlari hozirlanib, dolzarb oylik oldidan 3,4 mlrd. so'm mahalliy byudjet mablag'lari evaziga 12 dona suv chiqarish quvug'i hamda 16 km. sug'orish tizimi tashkil etildi.

— Ekiladigan ko'chat turlari viloyatning iqlim sharoiti va Fanlar akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalari asosida suvsizlik va kasalliklarga chidamli (gujum, qayrag'och, kataipa, akatsiya, zarang, shumtol, tut, jiyda, yong'oq, terak) daraxtlari tanlab olindi. — deydi viloyat hokimligining shu'ba mudiri Aziz Otaqulov. — Shu asosda o'rmon



xo'jaliklari, ko'chatlik yo'nalishidagi fermer va dehqon xo'jaliklari, aholi tomorqalari hamda tadbirkorlik subyektlari, akademik M. Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va

vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Navoiy viloyati filiali bilan 6 million dona ko'chat uchun shartnoma tuzilgan. Shuningdek, viloyatdagi yirik sanoat korxonalarida ekologik muhitni yaxshilash uchun 204,2 gektar yer maydonida 186,2 ming tup ko'chat ekilib, "yashil belbog'lar" barpo qilinishi ko'zda tutilgan.

Dolzab oylikda viloyat bo'yicha ekish tadbirlariga ishchi-xodimlar va tajribali agronom-mutaxassislar har bir tuman (shahar)ga safarbar etiladi. Ekish mavsumi tugashi bilan qadalgan ko'chatlarni saqlash hamda parvarishlash ishlari amalga oshiriladi.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi mas'ul xodimi Zubayda Dushanovanning aytishicha, o'tgan yil kuz va joriy yil bahor mavsumida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan ko'chatlarning qurib, nobud bo'lishiga yo'l qo'yan

mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli ravishda ma'muriy choralar qo'llanilgan.

— Har bir yashillik, xususan, "Yashil makon" ona sayyoramizning hayotiy manbai, — deydi mehnat faxriysi Suyun Qulmonov. — Shuning uchun nafaqat mavjud yashil olamni saqlash, balki ularni ko'paytirishimiz kerak. Bu atrof-muhit musaffoligini ta'minlash uchun juda zarur. Shunday ekan, masalaga ona tabiatga kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni his etgan holda yondashishimiz shart.

Viloyatning Nurota tumanida start berilgan xayriy tadbir xalqimizning qadimiy an'analari hamda urf-odatlariga binoan, nuroniy otaxonlar duosi bilan boshlandi, yaxshi niyatlarining ijobati, xayr-baraka so'raldi.

Temur ESHBOYEV ("Xalq so'zi").

Izlanish

ZAMONAVIY ISITISH QOZONLARI ISHLAB CHIQRILMOQDA

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlarga turli imtiyozlar berish orqali ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yurtimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, tadbirkor boyisa, rivojlansa, yana yangi-yangi tashabbuslarni amalga oshiradi, pirovard natijada qo'shimcha ish o'rnlari yaratiladi, hududlarda ishlab chiqarish salmog'i ortadi, xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi.



Buni Qarshi tumanida faoliyat yuritayotgan "Turdi-Muazzam servis" o'ila viy korxonasi faoliyati misolida ham ko'rish mumkin.

Mazkur korxonah rahbari Adham Egamberdiyev bundan o'n yil avval, hali o'liyog'ohda o'qib yurgan vaqtda o'z uyida kichik sex tashkil qilib, qurilishda foydalaniladigan ganchkorli mahsulotlari ishlab chiqarishni boshlagan. Dastlab sexda o'zi va o'ila a'zolari ishlagan bo'lsa, asta-sekin ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi ham, ishchilar soni ham oshib bordi.

Ayni paytda "Turdi-Muazzam servis" o'ila viy korxonasi zamonaviy isitish qozonlari ishlab chiqarish bozorida ham o'z o'rniga ega bo'lib ulgurdi.

— Isitish qozonlari yasashni ikki yil avval boshlagan edik, —

deydi Adham Egamberdiyev. — Dastlab oddiy uskunalar yordamida ishlagan bo'lsak, joriy yil boshida xorijdan metalliga lazer yordamida ishlov berish va payvandlash uchun mo'ljallangan yuqori texnologik dastgoh hamda asbob-uskunalar jamlamasini xarid qildik. Natijada turli o'lcham va dizayndagi, zamonaviy isitish qozonlarini tayyorlash imkonini paydo bo'ldi.

Bugungi kunda korxonada o'yiga e'likkadan ziyod zamonaviy isitish qozonlari tayyorlanmoqda. Shu bilan bir qatorda, yana o'nlab turdagi metall buyumlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Bu faoliyat ortidan esa hududdagi 70 nafar fuqaroning ish bilan bandligi ta'minlandi.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Biyennale

MILLIY AN'ANALARNI ASRASH VA TANLASH IMKONI

Poytaxtimizdagi Markaziy ko'rgazmalar zalida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan tashkil etilgan IV Toshkent xalqaro amaliy san'at biyennalesi boshlandi.

Ma'lumki, O'zbekiston Badiiy akademiyasi xalqimizni yuksak san'at namunalari bilan bahramand etish uchun turli ijodiy loyihalarni, tasviriy va amaliy san'at haftaliklari, xalqaro ko'rgazmalar va biyennalelarni muvaffaqiyatli o'tkazib kelmoqda.

Poytaxtimizda to'rtinchi bor uyushtirilgan mazkur amaliy san'at bayramining bu yilgi mavzusi "Globalashuv va milliy an'analarni asrash: tanlash imkoniyati" deb ataladi. Anjumanda dunyoning ko'plab mamlakatlaridan hamda O'zbekistondan 100 dan ziyod amaliy san'at ustalari besh kun davomida o'z ijod mahsullarini namoyish etadi.

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zali, Ikko Xirayama xalqaro madaniyat karvonsaroyi, Toshkent fotosuratlar uyi, Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi hamda O'zbekiston tasviriy san'at galereyasida zamonaviy o'zbek va xorij bezak san'ati, milliy kulolchilik, zardo'zlik, o'yakorlik, zargarlik asarlari ko'rgazmalari, mahorat darslari, taqdimotlar o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Bugungi kundagi shiddatli globalashuv jarayoni faqatgina odamlarning ongu tafakkuri, turmush tarziga emas, balki milliy san'atiga ham o'z ta'sirini

o'tkazayapti. Shuning uchun biyennalening maqsadi iqtisodiyot tez sur'atlar bilan globalashib, "ommaviy madaniyat" hayotda tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda amaliy san'atning o'ziga xosligini asrab qolish va an'analarni umumiylashib borishini bartaraf qilishni ilgari surishdan iborat bo'lib, bu anjumanning asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Shuningdek, biyennale milliy an'analarni asrab-avaylash, zamonaviy amaliy san'at namunalari xalqimiz va jahon hamjamiyatiga taqdim etish, unutilib borayotgan xalq an'analari va zamonaviy amaliy san'atda ro'y berayotgan dolzarb jarayonlarni o'rganish orqali turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik rishmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Muxtasar aytganda, Toshkent xalqaro amaliy san'at biyennalesi san'atning jamiyatimizdagi o'rini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tadbirning ochilish marosimida O'zbekiston Badiiy akademiyasi, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalari, qator vazirlik va idoralar mutasaddilari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Nurullo OHSTONOV ("Xalq so'zi").

ANIQ MAQSAD VA QAT'IYAT MEVASI

Bundan sakkiz yil muqaddam turmush o'rtog'i vafot etgach, uch nafar yosh farzandi bilan yolg'iz qolgan va turli qiyinchiliklarga duch kelgan Xurshida Egamberdiyeva bugun hayotning ravon yo'liga tushib oldi.

Yaqqingacha kunbaymi, mavsumiyim, qanday bo'lsin, ro'zg'or uchun pul topish ilinjida mehnat qilib yurgan ayol endi o'quv markazi rahbari. Uni bu darajaga yetkazgan, avvalo, o'zidagi maqsad sari qat'iylilik va albatta, ro'zg'or tashvishlaridan ortib O'shlar ishlari agentligining "Ibrat farzandlari" loyihasida faol ishtirok etgani bo'ladi.

Oramizdagi odamlar

Boyovut tumanining Sarmish mahallasida yashayotgan Xurshida Egamberdiyeva ayni loyiha tufayli ingliz tili bo'yicha bilimni mukammallashtirib, boshqalarga ham o'rgatish layoqatiga ega bo'ldi. Natijada o'z mahallasidagi bolalar uchun o'quv markazi tashkil etdi. Tashabbusi ko'pchilikning e'tiboriga tushdi.

— Rosti, intilishimiz, natijalarimiz yaxshiyu, o'quv sharoitimiz oddiy, uni yaxshilashga hali moliyaviy quribmiz yetmay turgan edi, — deydi Xurshida Egamberdiyeva. — Ishlarimdan xabar topgan viloyat hokimi yaqinda xonadonimizga kelib, faoliyatimiz va sharoitlarimiz

bilan tanishdi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, viloyat hokimligining madadi bilan xonadonimizdagi turli qiyinchiliklarni yordamchi binomiz mukammal ta'mirlanib, o'quv markaziga aylantirildi. Bugun bu yerda birinchi dars mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Uning ochilishida ishtirok etgan viloyat hokimi "O'shlar ulg'ayib qaysi kasbni egallamasin, chet tilidan ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Dizayner, servis xodimi, sotuvchi yoki kichik biznes egasi bo'ladimi — har qanday sohada ko'p tilni bilish uning yuqori professional mutaxassis bo'lish borasidagi maqsadlariga erishishida muhim o'rin tutadi. Bu tashabbus

shu hududdagi yoshlarning ayni maqsadlariga yetishiga, ya'ni ingliz va boshqa tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi," deb menga katta ishonch bildirdi.

Viloyat hokimligi o'quv markazi binosini kiroy qilib qurib bergan bo'lsa,

O'shlar ishlari agentligi uni kompyuter jamlamalaridan tortib, televizorlari pardasigacha to'kis-tugal jihozlab berdi. Natijada avval bu yerda 40 nafarga yaqin bolalarga ingliz tili o'rgatilgan bo'lsa, endi zamonaviy o'quv markaziga aylantirilgan maskanda 230 nafar o'quvchi saboq olmoqda.

E'tiborsiz, ingliz tilidan tashqari nemis va koreys tillari, shuningdek, IT bo'yicha o'quv kurslari ham tashkil qilindi. Turli sinfdagi o'quvchilar qatorida markazda 3 yoshdan yuqori jajji bolalar ham o'qitilayotgani tashqari loyiq.

E'tirof etish lozimki, Xurshida Egamberdiyeva o'z farzandlari chuqur bilim olishi uchun oilasida o'rnatgan tartibi ham ibratli. Uning aytishicha, oilasida o'qilgan kitoblarning hisobi yuritilgan ekan. Ushbu ro'yxatga har bir kitobdan kerakli iqtiboslar, ma'lumotlar ham yozib boriladi. Oila a'zolarining bugungacha o'qigan adabiyotlari soni 2000 tadan oshibdi.

Shu bilan birga, oila kitobxonlar tanlovida ham faol ishtirok etib kelayotir. Xurshida Egamberdiyevaning "Farzandlarim uchun" deb nomlangan daftariida ularning bilim va dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladigan ko'plab ma'lumotlar bor.

Hozirgacha u to'ldirgan bunday daftarlarning miqdori 80 ta. Yana bir muhim jihat — oila a'zolarining qat'iy kun tartibi bor. Albatta, ushbu rejaning asosiy bandleari o'qish-o'rganish bilan bog'liq vazifalardan iborat.

Ayni paytda Xurshida Egamberdiyevaning xonadonida ochilgan zamonaviy o'quv markazi faoliyati ham namunali ish rejasi asosida olib boriladi.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041.32.699 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yublab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostonov. Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonah manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.28 Topshirildi — 02.10

1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi